

Yoqilg'i va energiya balansini shakllantirish bo'yicha uslubiy nizom

Uslubiy nizom O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 4- martdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-114-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, shuningdek, Statistik ma'lumotlarni ishlab chiqish jarayonlarining namunaviy modeli (Generic Statistical Business Process Model (keying o'rinlarda GSBPM)) talablari asosida ishlab chiqilgan.

Ushbu uslubiy nizom yoqilg'i va energiya balansini (keyingi o'rinlarda YoEB), shuningdek, yoqilg'i va energetika sanoatini tavsiflovchi statistika ma'lumotlarini shakllantirish tartibini belgilaydi.

Uslubiy nizom Xalqaro energetika agentligi tavsiyalari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, statistika organlari tomonidan yoqilg'i energiya balansini shakllantirish uchun foydalaniladi.

YoEBni shakllantirish Statistika agentligi tomonidan har yili statistika hisobotlari shakllaridan olingan birlamchi statistika ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi. YoEB sxemasi ushbu uslubiy nizomning 1-ilovasiga muvofiq shakllantiriladi.

1-Bob. Umumiy tushunchalar

1. Ushbu uslubiy nizomda quyidagi asosiy tushuncha va ta'riflardan foydalaniladi:

birlamchi energiya – bu tabiiy manbalardan ajratib yoki to'g'ridan-to'g'ri olinadigan mahsulotlardir (xom neft, toshko'mir, tabiiy gaz);

issiqlik energiyasi (yonish jarayonidagi issiqlik) – issiqlik ta'minoti qurilmalarida isitish uchun ishlab chiqariladigan (Djoulda yoki kilokaloriyada o'lchanadigan) mahsulotlar;

ikkilamchi energiya – birlamchi yoki boshqa energiyani qayta o'zgartirishdan hosil qilinadigan energiya;

yoqilg'i – asosiy tarkibiy qismi ugleroddan iborat bo'lgan modda bo'lib, uni yoqishda issiqlik energiyasi olish maqsadida qo'llaniladi;

yoqilg'i energiya resurslari – ishlab chiqarish, eksport va ichki maishiy ehtiyojlarni ta'minlash uchun har xil turdagi yoqilg'i va energiya turlarining yig'indisi;

yoqilg'i energiya balansi - ma'lum bir vaqt oralig'ida sohalar va tarmoqlar bo'yicha kelib tushish va sarflanishi o'rtasidagi aniq miqdoriy balansni aks etadigan (yo'qotishlar va qoldiqlarni hisobga olgan holda) ko'rsatkichlar tizimi;

energetika – energiya resurslarini, turli xil energiya manbalarini ishlab chiqarish, qayta ishlash, uzatish va ulardan foydalanishni qamrab oluvchi sanoat kompleksi;

yakuniy energiya iste'moli – barcha yoqilg'i va energiya maqsadlarida (transport, sanoat, xizmatlar sohasi, qishloq xo'jaligi, uy xo'jaliklari va boshqalar) foydalanish uchun oxirgi iste'molchiga yetkazib berilayotgan energiyaning iste'moli.

2-Bob. Yoqilg'i energiya balansining ko'rsatkichlari va tizimi.

2. Yoqilg'i energiya balans i birlamchi va ikkilamchi energiya mahsulotlarining turli xil turlarini birlashtiradigan kompleks muvozanatdir va ushbu uslubiy Nizomning 2-ilovasiga muvofiq shakllantiriladi. Undagi birlamchi va ikkilamchi energiya oqimlarining harakatini hamda ularning ekvivalentlarini tavsiflovchi ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi.

3. Mazkur Nizom 2-ilovasining 1–14 ustunlardagi balans ko'rsatkichlari birlamchi yoki ikkilamchi energiya mahsulotlarining ma'lum bir turiga yoki guruhiga ko'ra shakllantiriladi. Mahsulotlar ro'yxati ushbu uslubiy Nizomning 3-ilovasida keltirilgan.

4. Balans ko'rsatkichlari shartli ravishda 3 blok orasida bog'langan balans birligiga bo'linadi.

– birinchi blok – mamlakatda ishlab chiqarilgan, tashqaridan import qilingan yoki eksport qilingan energiya, shuningdek, hisobot davridagi zaxiralarning o'zgarishi;

– ikkinchi blok – energiya mahsulotlarini boshqa bir yoqilg'i va energiya turiga qayta o'zgarishi, taqsimlash jarayonidagi yo'qotishlar va o'z ehtiyojlari uchun energiya sarfini;

– uchinchi blok – energiyaning oxirgi iste'moli va energiya mahsulotining noyoqilg'i sifatida sarfini aks ettiradi.

5. Birinchi blok birlamchi energiya ta'minoti va ularning ekvivalentlarini tavsiflovchi balans obyektini o'z ichiga oladi:

$$JE = ICHM + I - E - ZO'$$

JE – Jami energiya ta'minoti;

ICHM – ishlab chiqarilgan (qazib olingan) birlamchi mahsulotlar;

I - import;

E - eksport;

ZO' - zaxira hajmining o'zgarishi.

6. Ikkinchi blok bir mahsulotni ikkinchi bir mahsulot turiga aylanish jarayonini, energetika sohasining o'z ehtiyojlari uchun sarf va yo'qotishlarni o'z ichiga oladi.

7. YoEBning uchinchi bloki – yakuniy iste'mol – oxirgi iste'molchilar tomonidan iste'mol qilinadigan energiya sarfini, shuningdek energiya mahsulotlarining noyoqilg'i sifatida sarflanishini aks ettiradi.

$$YAI = JE - (ES + NS + Yo + SF)$$

YAI – yakuniy iste'mol;

ES – energetika sohasidagi yo'qotish, iste'mol va mahsulotlarni qayta o'zgarishi;

NS - energiya mahsulotlarini noyoqilg'i sifatida sarfi;

Yo – yo'qotishlar;

SF – statistik farq;

3-Bob. Yoqilg'i va energiya balansini shakllantirish

8. Mahsulotlarni ishlab chiqarish (qazib olish) jarayonida ishlab chiqaruvchi tomonidan iste'mol qilingan energiya, shu jumladan o'z ehtiyojlari uchun sarflangan energiya va tabiiy resurslardan birlamchi energiya mahsulotlarini ishlab chiqarishni (qazib olish) o'z ichiga oladi.

Mayoqlarda yoqilgan gazlar jami ishlab chiqarilgan gaz hajmiga kiritilmaydi.

Shamol va quyosh energiyasidan ishlab chiqarilgan elektr energiyasi asosida hosil bo'lgan geotermik energiya – ishlab chiqarilgan issiqlik energiyasi miqdorida aks ettiriladi.

9. Birlamchi energiya importi va eksporti ma'lumotlari tovarlar tashqi savdosi to'g'risidagi rasmiy statistika ma'lumotlari asosida shakllanadi.

10. Zaxira hajmining o'zgarishi yoqilg'i resurslari iste'molchilari va yetkazib beruvchilari bo'lgan tashkilotlar o'rtasida yil boshida va yil oxirida zaxiralar hajmidagi arifmetik farqni aks ettiradi.

Zaxiralar hajmi o'zgarishiga mamlakatda ehtiyot chora sifatida olib qo'yilgan yoqilg'i zaxiralari, neft va gaz quvurlarida yonadigan tabiiy neft va gaz zaxiralari va yer ostidagi energiya manbalari va mineral zaxiralar kiritilmaydi.

11. Birlamchi energiya va uning ekvivalenti jami iste'moli barcha iste'mollarni hisobga olgan holda, Respublika ichki bozoridagi barcha ehtiyojlari (iqtisodiyot tarmoqlarida sarflanishi, energiyaning qayta ishlashda sarfi, noenergetika maqsadlarda sarfi, yakuniy iste'molini) uchun aks ettiradi.

12. Energiyani qayta ishlash natijasida boshqa turdagi energiya turiga o'zgarishi.

Birlamchi energiya iste'moli belgisi (kirish) "–" va ikkilamchi energiya ishlab chiqarish (chiqish) belgisi "+" bilan izohlanadi.

Qayta ishlash sohasida "–" belgisi bilan ko'rsatilgan ma'lumotlar quyidagilardan iborat: issiqlik va elektr energiyasini ishlab chiqarishda yoqilg'i iste'moli, boshqa turdagi yoqilg'i ishlab chiqarish uchun xomashyo sifatida yoqilg'i sarf qilish, shu jumladan, brikallashtirish, distillash, maydalash, aralashtirish va boshqa usullar kiradi.

Qayta ishlash sohasida "+" belgisi esa ko'rsatilgan ma'lumotlar birinchi darajali qayta ishlashdan keyin ikkilamchi energiyaga o'zgarishi to'g'risidagi ma'lumotlar, ya'ni yonilg'i yoqilganda yonib ketishdan issiqlik va elektr energiyasi, yoqilg'ini briketlashdan yoqilg'i briketlari, neftni qayta ishlashdan olinadigan yoqilg'i va boshqa ikkilamchi energiya mahsulotlaridan iborat.

Elektr energiyasi ishlab chiqarilishi yonilg'i yonishi natijasida gaz turbinali, bug' turbinali dizel generatorlari va boshqa elektr ishlab chiqaruvchi qurilmalar yordamida elektr energiyasi ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.

Qayta ishlash sohasida texnikalar iste'moli aks ettirilmaydi.

Issiqlik energiyasini ishlab chiqarish IES, kichik IES, IES qozonlarida (0,5 Gkal soatdan kam quvvatli qozonlardan tashqari) issiqlikni ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan yoqilg'i iste'mol qiluvchi qurilmalar issiqlik energiyasini (bug' va issiq suv) ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.

Issiqlik elektr stansiyalari qozonxonalarida ishlab chiqarilgan issiqlik energiyasi va turbinali generator va bug' turbinali elektr energiyasini ishlab

chiqarish paytida oraliq energiya manbai sifatida ishlatiladi va issiqlik energiyasini ishlab chiqarish hajmiga kiritilmaydi.

Suv, shamol, quyosh, geotermal issiqlik energiyasidan ishlab chiqariladigan elektr energiyasi va issiqlik energiyasi birlamchi energiya manbalari hisoblanib, energiya qayta o'zgarish sohasida aks ettirilmaydi.

Issiqlik va elektr energiyasini ishlab chiqarish bilan bog'liq qayta o'zgarish jarayonlari to'g'risidagi ma'lumotlar elektr stansiyalar bo'yicha, boshqa turdagi yoqilg'ilarga qayta ishlash turlari bo'yicha shakllantiriladi.

Elektr stansiyalar o'z ehtiyojlari uchun elektr iste'moli to'g'risidagi ma'lumotlarni alohida aks ettiradi.

13. Noenergetika sohasidagi yoqilg'i iste'moli kimyo, neft-kimyo va boshqa noyoqilg'i mahsulotlari ishlab chiqarish uchun xom ashyo sifatida foydalanish bilan bog'liq yonilg'i iste'moli hajmini o'z ichiga oladi.

14. Yo'qotishlar va taqsimlashdagi yo'qotishlar barcha birlamchi va ikkilamchi energo turlarini ishlab chiqarish, saqlash, tashish va qayta ishlash jarayonidagi yo'qotishlarni o'z ichiga oladi.

15. Yakuniy iste'mol – oxirgi foydalanuvchilar (iqtisodiyotning barcha sohalari va aholi) tomonidan energetika maqsadlari uchun yoqilg'i va energiya resurslari iste'molini o'z ichiga oladi:

korxonalarning yoqilg'i iste'moli bevosita elektr va issiqlik energiyasiga aylantirmasdan yoqilg'i sifatida, to'liq yoki ichki yonuv dvigatellarida, maishiy pechlarida, quritish mashinalarida va boshqa texnologik va isitish uskunalari sarflagan (ishlab chiqarishdagi texnologik yo'qotishlarni qo'shgan holda) iste'moli hisoblanadi;

barcha yuridik shaxslarning sanoatda, qishloq xo'jaligida, qurilishda, transport va kommunal ehtiyojlarida issiqlik va elektr energiyasi iste'moli;

aholiga yoqilg'i-energetika resurslarini yetqazish.

16. Transport sohasida yuridik va jismoniy shaxslarning transport vositalari ichki yonuv dvigatellari orqali iste'moli hamda quvurlar ishlarida sarflangan iste'moli qayd etiladi.

Transport sohasida aks ettirilmaydi:

Transport kompaniyalari egalik binolari (temir yo'l stansiyalari, aeroportlar, va shunga o'xshash hududlar) sarflagan energiyasi hisoblanmaydi. Bu iste'mol xizmatlar sohasida aks etiladi;

yo'lovchilar va yuklarni tashishga mo'ljallanmagan qishloq xo'jaligi, o'rmon xo'jaligi, yo'l qurilishi, kommunal sohalarda yuklarni tashish, uskunalar uchun yoqilg'i xarajatlari, shuningdek yong'in o'chiruvchi va maxsus avtotransport vositalarini ishlatish uchun yoqilg'i xarajatlari tegishli tarmoqlarda aks ettiriladi.

17. YoEB shakllantirishda neft ekvivalenti birliklariga qayta hisoblanganda o'rtacha shartli o'lchov birlik koeffitsiyentlaridan foydalanib, barcha yoqilg'i turlarini hisoblash orqali amalga oshiriladi.

18. Zarur bo'lganda, ushbu uslubiy Nizomning 4-ilovasiga muvofiq, ming tonna neft ekvivalentidan yoqilg'i-energiya resurslarini qayta hisoblash koeffitsiyentlaridan foydalangan holda boshqa o'lchov birliklariga o'tkazilishi mumkin.

4-Bob. Yoqilg'i va energiya balansini shakllantirishda yoqilg'i turlari

19. Yoqilg'i va energiya balansi ma'lumotlari, energiya resurslarining alohida turlari va guruhlar bo'yicha shakllantiriladi.

Ko'mir - yuqori kokslanish darajali va 24 MDj/kg (5700 kkal/kg)dan yuqori issiqlik chiqarish qobiliyati bo'lgan ko'mir;

Ko'mir briketlari – bog'lovchi moddalarni qo'shishda, bosim va harorat ta'sirida bir xil shakldagi chorqirralar ko'rinishida briketlangan mayda ko'mir;

Koks – ko'mirni kokslash natijasida hosil qilinadigan qattiq mahsulot;

Qo'ng'ir ko'mir, lignit – past kokslanish darajali va yuqori issiqlik chiqarish qobiliyati 24 MDj/kg (5700 kkal/kg)dan kam bo'lgan kulsiz, nam asosidagi ko'mir;

Qo'ng'ir ko'mir briketi – qo'ng'ir ko'mir briketlari – yuqori bosim ostida va bog'lovchi moddalarni qo'shmagan holda, maydalash va quritishdan keyin bir xil shakldagi chorqirralar ko'rinishida briketlangan lignit;

Boshqa qo'ng'ir ko'mir mahsulotlari – qattiq yoqilg'ini qayta ishlash mahsulotlari (koks maydasi va shu kabilar)

Neft, va gaz kondensati – qazib olinadigan suyuq uglevodorodlar, jumladan: xom neft, tabiiy gazdan olingan suyuqliklar (gaz kondensati suyuqliklari); to'liq yoki qisman qayta ishlangan xom neft; funksional jihatdan o'xshash suyuq uglevodorodlar va o'simlik va hayvonlarning organik kimyoviy moddalari.

Xom neft – tabiiy uglevodlar aralashmasidan tashkil topgan, sariq yoki qora rangli, o‘zgaruvchan og‘irlilik va qayishqoqlik ko‘rsatkichlariga ega mineral moy; bu toifaga bituminoz minerallardan ajratib olingan xom mineral neft mahsulotlari (bituminozli qum va h.k.) kiritilgan; xom neft bo‘yicha ko‘rsatkichlarga qazib olish mobaynida separator qurilmalarda gazsimon uglevodlardan ajratib olingan gaz kondensatlari kiritilgan;

Gaz kondensat suyuqliklari – etan, propan, butan, pentan va bir necha yuqori alkanlar aralashmasidir.

Neft mahsulotlari – xom neft yoki neft va gaz konlaridan olinadigan gazlar; “yengil” va “og‘ir” turga bo‘linadi.

Yengil neft mahsulotlari (texnologik jihatdan) xom neftni 30s haroratdan 350s haroratgacha distillash natijasida olingan o‘ziga xos og‘irligi 0.625 dan 0.830 gacha bo‘lgan suyuq nyeft mahsulotlari sifatida aniqlanadi.

Hisobga olinmaydigan mahsulotlar – eritmalar sifatida ishlatiladigan kimyoviy va neft-kimyosanoatida keyingi ishlov berilishi uchun chiqarilgan mahsulotlar.

Yengil neft mahsulotlari – avtomobil benzini, aviatsiya benzini, reaktiv dvigatellar uchun aviatsiya kerosini, texnik maqsadlar uchun kerosin va kerosindan iborat.

Og‘ir neft mahsulotlari (texnologik jihatdan) xom neftni 350s haroratdan yuqori darajagacha distillash natijasida olingan o‘ziga xos og‘irligi 0.830 dan yuqori bo‘lgan neft mahsulotlari sifatida aniqlanadi.

Hisobga olinmaydigan mahsulotlar – ularga energetik maqsadlarda foydalanilmaydigan neft parafini, smola va yog‘lash uchun ishlatiladigan moylar kabi mahsulotlar kiradi.

Og‘ir neft mahsulotlari dizel yoqilg‘isi (gazoyl), mazutning barcha turlari va avtomobil (tezligi yuqori bo‘lmagan dizel dvigatellari) uchun yoqilg‘idan iborat.

Dvigatel benzini – distillash harorati 25° C dan 220° C gacha bo‘lgan uchuvchi uglevodorodlarning aralashmasi; biomassadan olingan benzinda tozalanmagan tarkibiy qismlari bo‘lishi mumkin; ish faoliyatini ishlatish uchun qo‘shimchalardan tozalab aviatsiya, avtomobil va reaktiv dvigatelli benzinlarga ajratilgan yoqilg‘i.

Dizel yoqilg‘isi - gaz moylari va og‘ir gaz moylarini o‘z ichiga olgan neft mahsulotlari guruhi; gaz moylari o‘rta distillash fraksiyalari bo‘lib, asosan uglerod soni C₁₁ dan C₂₅ gacha va distillash harorati 160° C dan 420° C gacha; og‘ir gaz moylari 380° C dan 540° C gacha bo‘lgan haroratda distillash harorati bo‘lgan asosan gaz moyi va isitish moyining aralashmasi.

Suyultirilgan gaz va boshqa neft gazi - suyultirilgan propan (propan qotishmalari), butan va izobutan yoki ushbu uglevodorodlar aralashmalarini o'z ichiga oladi. Boshqa neft gazlarga esa neft va gaz korxonalarining stabillashadigan qurilmalari ajratishidan olingan etan gazi va bundan tashqari neftni qayta ishlash jarayonida olingan gazlar haqida ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Boshqa neft mahsulotlari esa yuqoridagilardan tashqari neftdan hosil bo'lgan mahsulotlarni (qisman qayta ishlangan mahsulotlarni qo'shgan holda) o'z ichiga oladi.

Boshqa ishlab chiqarishdagi gazlar (sun'iy gaz) – koks gazi, pech gazi va chiqindilar yonishidan ajralgan gazlar.

Tabiiy gaz – gazsimon ko'rinishda yoki tabiiy yer osti qatlamlaridagi neft bilan qorishma ko'rinishida bo'lgan, uglevodorodlar birikmalari va kichik miqdordagi nouglevodorodlar aralashmasi;

Ko'mir gazi – ko'mir konlaridan olingan (metan) gaz

Gidroenergiya – suvning gidroelektrostansiyalarda elektr energiyasiga aylantirilgan potensial va kinetik energiyasi;

Quyosh energiyasi – quyosh nurlaridan elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi quyosh batareyalari va quyoshda ishlaydigan kollektor qurilmalaridan olingan energiya.

Shamol energiyasi – kinetik shamol kuchidan shamol turbinalari yordamida ishlab chiqarilgan elektr energiyasi.

Atom energiyasi – atom elektrostansiyalarida ishlab chiqarilgan elektr energiya.

Biogaz – biomassaning anaerobik parchalanishi natijasida asosan metan va karbonat angidrididan tashkil topgan gaz.

Biogaz chiqindixonalarida organik chiqindilarni chirishi samarasida hosil bo'ladigan biologik gaz degan ma'noni anglatadi;

Boshqa turdagi energiya – yuqorida keltirilgan energiya turlaridan tashqari noan'anaviy ishlab chiqarilgan energiya.

5-Bob. Yakuniy qoidalar

20. Mazkur uslubiy hujjatni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va amaliyotga joriy qilish bosqichlari "Statistik ma'lumotlarni taqdim etishning universal modeli" (GSIM – Generic Statistical Information Model) talablari asosida ishlab chiqilgan "Statistika sohasida tasniflar, metodologiyalar va kuzatuv shakllarini ishlab chiqish va tasdiqlash bo'yicha namunaviy uslubiy qo'llanma"ga muvofiq amalga oshirilgan.

Ma'lumot uchun foydalanilgan axborotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining davlat standarti O'zDSt 2914:2014//Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (MSK), "Uzstandart" Agentligi tomonidan 2015-yil 19-yanvardagi 05-612-son qaror bilan tasdiqlangan.

2. Sanoat statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar 2008- yil // Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqtisodiy va ijtimoiy masalalar bo'yicha departamenti, M № 90 seriyasi // Nyu-York, 2010- yil.

3. Milliy hisoblar tizimi 2008- yil//Yevropa komissiyasi, Xalqaro valyuta fondi, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon banki // Nyu-York, 2012- yil.

4. Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Energetika statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (IRES) Nyu-York, 2018- yil.

Yoqilg'i va energiya balansini shakllantirish
bo'yicha uslubiy nizomga
1-ilova

Yoqilg'i va energiya balansini shakllantirish mexanizmi

Bosqichlar	Amalga oshirish mexanizmi	Amalga oshirish muddati	Bajarishga mas'ullar
1-Bosqich – Axborot yig'ish	1. Statistika hisobotlari 1 energiya (yetkazish) shakli, 1 energiya (sarflash) shakli, 1 energiya (neftgaz) shakli, 1 energiya (ishlab chiqarish) shakli, 1 energiya (tarmoq) shakli, 1 korxona shakli, 1 kb shakli. 2. Alohida energetika ko'rsatkichlari 3. Uy ho'jaliklarida energiya iste'molini bashoratli baholash.	Har yili, fevral-mart oylarida Har yili, mart-aprel oylarida Har yili, aprel-may oylarida	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar statistika idoralari “O'zbekneftgaz” AJ, “Milliy elektr tarmoqlari” AJ, “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ, “Issiqlik elektr stansiyalari” AJ, “O'zbekgidroenergo” AJ, Sanoat va energetika statistikasi boshqarmasi
2-Bosqich – Natijalarini tekshirish va tahlil qilish	1. Energiyaning ishlab chiqarilish va taqsimlanishi ko'rsatkichlari yig'ma tahlili. 2. Energiyaning eksport va import ko'rsatkichlarini yig'ma tahlili.	Har yili, aprel-may oylarida	Sanoat va energetika statistikasi boshqarmasi Tashqi iqtisodiy aloqalar va savdo statistikasi boshqarmasi
3-bosqich – Tegishli vazirliklar bilan YoEB ko'rsatkichlarini solishtirish	1. YoEBni yakuniy raqamlarda solishtirish	Har yili, may-iyun oylarida	Energetika vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi
4- Bosqich – Yig'ma ma'lumotlarni nashr qilish va tarqatish	1. Statistika agentligining www.stat.uz onlayn saytiga YoEB yig'ma ko'rsatkichlarini joylashtirish 2. Xalqaro tashkilotlar so'roviga asosan ma'lumotlar bilan ta'minlash. 3. Foydalanuvchilar uchun yig'ma ma'lumotlar chiqarish.	Har yili, iyul oyida	Sanoat va energetika statistikasi boshqarmasi

Yoqilg'i va energiya balansini shakllantirish
bo'yicha uslubiy nizomga
2-ilova

Yoqilg'i va energiya balansini

neft ekvivalentiga teng (ming tonna)

Balans ko'rsatkichlari	Ko'mir	Tabiiy gaz	Neft, gaz kondensatini qo'shgan holda	Benzin	Dizel yoqilg'isi	Mazut	Gazlar suyultirilgan uglevodorod	Kerosin	Koks	Boshqa turdagi neft mahsulotlari	Atom energiyasi	Elektr energiyasi	Issiqlik energiyasi	Jami
B	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14
Ishlab chiqarish (+)														
Import (+)														
Eksport (-)														
Zaxira hajmini o'zgartirishi (+, -)														
Jami energiya ta'minoti (=)														
Statistik farqlar (+, -)														
Transferlar														
Energiyaning qayta o'zgarishi (+, -)														
Elektrostansiyalar														
Issiqlik elektr stansiyalari														
Issiqlik elektr markazlari														
Gaz zavodlari (va boshqa gazlarni qayta ishlash)														
Neftni qayta ishlash														
Ko'mirni qayta ishlash														
Gazdan va ko'mirdan suyuq yonilg'i olish														
Boshqa yoqilg'i turlarini qayta ishlash														
Energetika sohasining o'z ehtiyojlariga iste'moli														
Yo'qotishlar														
Yakuniy iste'mol														
Sanoat sohasiga														

Balans ko'rsatkichlari	Ko'mir	Tabiiy gaz	Neft, gaz kondensatini qo'shgan holda	Benzin	Dizel yoqilg'isi	Mazut	Gazlar suyultirilgan uglevodorod	Kerosin	Koks	Boshqa turdagi neft mahsulotlari	Atom energiyasi	Elektr energiyasi	Issiqlik energiyasi	Jami
B	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash														
Kimyo														
Metallurgiya														
Nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish														
Mashina va uskunalarni ishlab chiqarish, ta'mirlash, o'rnatish, transport vositalari, tirkamalar va boshqa tayyor metal buyumlar ishlab chiqarish														
Oziq-ovqat, ichimliklar, va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish														
Qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish va yozilgan materiallarni nashr qilish														
To'qimachilik, kiyim, teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish														
Sanoatning boshqa tarmoqlari														
Transport sohasiga														
Tyemir yo'l transporti														
Avtomobil transporti														
Boshqa turdagi transportlar (suv, havo va boshq.)														
Quvurlarda tashish														
Yuk tashish														
Boshqa sohalarga														
Aholi														
Qurilish														

Balans ko'rsatkichlari	Ko'mir	Tabiiy gaz	Neft, gaz kondensatini qo'shgan holda	Benzin	Dizel yoqilg'isi	Mazut	Gazlar suyultirilgan uglevodorod	Kerosin	Koks	Boshqa turdagi neft mahsulotlari	Atom energiyasi	Elektr energiyasi	Issiqlik energiyasi	Jami
B	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14
Tijorat va davlat korxonalari														
Chorvachilik, ovchilik, o'rmonchilik va ushbu sohalarda xizmat ko'rsatish														
Baliqchilik														
Boshqalar														
Noyoqilg'i sifatida														
sanoatda														
Shundan kimyo va neft kimyo sohasida														
transportda														
boshqa sohalarda														

Yoqilg'i va energiya balansini
shakllantirish bo'yicha uslubiy nizomga
3-ilova

Mahsulotlar ro'yxati

T/r №	Balans tarkibi	O'lchov birligi	Energiya mahsulotlari turlari ro'yxati
1.	Ko'mir	ming. t	tosh ko'mir
			qo'ng'ir ko'mir
			ko'mir mahsulotlari
2.	Tabiiy gaz	mln. m ³	tabiiy gaz
3.	Neft	ming. t	xom neft
3.1	Nyeft, gaz kondensatini qo'shgan holda	ming. t	neft
			gaz kondensati
3.2	Benzin	ming. t	aviatsiya benzini
			avtomobil benzini
3.3	Dizel yoqilg'isi	ming. t	dizel (gazoyl)
			og'ir dizel (gazoyl)
3.4	Mazut	ming. t	mazut yoqilg'isi
3.5	Gazlar suyultirilgan uglevodorodlar	ming. t	propan
			butan
			suyultirilgan uglevodorod butan, izobutan yoki ushbu uglevodorodlar aralashmasi)
3.6	Kerosin	ming. t	reaktiv kerosin
			boshqa kerosinlar
3.7	Koks	ming. t	neft koksi
3.8	Boshqa neft mahsulotlari	ming. t. neft ekvivalenti	uayt-spirit, parafin, bitum va boshqa neft mahsulotlari
4.	Atom energiyasi	MVt.s ming Gkal	yadro yoqilg'isining parchalanishi natijasida hosil bo'ladigan issiqlikdan ishlab chiqariladigan elektr va issiqlik energiyasi
5.	Elektr energiyasi	mln. kVt·s	barcha turdagi elektr energiya
6.	Issiqlik energiyasi	ming. Gkal	yonilg'i yonishidan hosil bo'lgan issiqlik energiyasi
			geotermal manbalardan ishlab chiqarilgan issiqlik energiyasi

Yoqilg'i va energiya balansini
shakllantirish bo'yicha uslubiy nizomga
4-ilova

Yoqilg'i-energiya resurslarini qayta hisoblash koeffitsiyentlari

Yoqilg'i va energiya turi	O'lchov birligi	Kaloriyali ekvivalenti	Giga djoul	tonna (neft ekvivalentid a)	Gkal
B	V	1	2	4	5
Ko'mir	tonna	0,77	22,609	0,54	5,400
Lignit (qo'ng'ir ko'mir)	tonna	0,38	11,262	0,27	2,690
Ko'mir briketlari	tonna	0,77	22,609	0,54	5,400
Qo'ng'ir ko'mirdan briketlar	tonna	0,38	11,262	0,27	2,690
Tabiiy gaz	ming m ³	1,16	34,001	0,81	8,121
Neft	tonna	1,43	41,868	1,00	10,00
Gaz kondensatini	tonna	1,47	43,000	1,03	10,27
Yo'ldosh neft gazi	ming m ³	1,16	34,001	0,81	8,121
Koks gazi	ming m ³	0,57	17,590	0,42	4,200
Maishiy pech gazi	tcm	0,57	22,400	0,096	0,960
Benzindan olingan gaz	m ³	1,5	43,100	1,02	10,20
Ko'mirdan olingan koks	tonna	0,99	26,380	0,63	6,300
Byenzin	tonna	1,53	44,750	1,070	10,689
Aviasiya uchun benzin	tonna	1,54	45,030	1,08	10,755
Kyerosin	tonna	1,50	43,920	1,05	10,490
Dizel	tonna	1,48	43,380	1,04	10,361
Maishiy qo'ra yoqilg'isi	tonna	1,45	42,500	1,015	10,150
Mazut yoqilg'isi	tonna	1,44	42,180	1,01	10,075
Propan va butan	tonna	1,59	46,150	1,10	11,023
Bitum	tonna	1,44	41,800	0,998	9,980
Elektroenergiya	ming, kVt,s	0,12	3,600	0,09	0,860
Issiqlik energiyasi	Gkal	0,14	4,187	0,10	1

Методические положения по формированию топливно-энергетического баланса

Методическое положение подготовлено во исполнение Постановления Президента Республики Узбекистан от 4 марта 2024 года № ПП-114 «О мерах по организации деятельности Агентства статистики при Президенте Республики Узбекистан», с учетом требований «Типовой модели процессов производства статистических данных» (GSBPM- Generic Statistical Business Process Model).

Настоящие Методические положения определяют порядок формирования статистической информации для топливно-энергетического баланса (далее - ТЭБ), а также отдельных показателей, характеризующих топливно-энергетическую отрасль.

Методические положения основываются на рекомендациях Международного энергетического агентства и предназначены для использования органами государственной статистики при формировании топливно-энергетического баланса.

Формирование ТЭБ осуществляется Госкомстатом ежегодно на основании агрегированных первичных статистических данных, полученных по формам государственной статистической отчетности. Схема формирования ТЭБ приведена в Приложении № 1 к настоящему Методическому положению.

1. Общие положения

1. В настоящих Методических положениях используются следующие основные понятия и определения:

первичная энергия – источники энергии (энергоносителей), которые требуют лишь добычи или улавливания с учетом или без учета их отделения от сопутствующей породы, очистки или сортировки, прежде чем энергия, содержащаяся в этих источниках, может быть преобразована;

теплота сгорания (теплота горения) - количество теплоты (в Джоулях или килокалориях), выделяющееся при полном сгорании единицы топлива;

вторичная энергия – источники энергии, которые являются результатом преобразования первичных источников;

топливо – вещество, основной составной частью которого является углерод, применяемое с целью получения при его сжигании тепловой энергии;

топливно - энергетические ресурсы – совокупность различных видов топлива и энергии, имеющих в наличии для обеспечения производственных, бытовых и экспортных потребностей;

топливно - энергетический баланс – система показателей, отражающая полное количественное соответствие между приходом и расходом (включая потери и остаток) в целом или на отдельных его участках (отрасль, регион, предприятие, цех, процесс, установка) за выбранный интервал времени;

энергетика – отраслевой комплекс, охватывающий энергетические ресурсы, выработку, преобразование, передачу и использование различных видов энергии;

конечное потребление – включает топливо и энергию, поставленные потребителям для энергетического и неэнергетического использования, за исключением топлива и энергии, участвующих в процессах преобразования;

